

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY OMILLAR: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY TADQIQOTLAR

*D. Ergasheva*¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada frazeologik birliklarning etimologiyasi, ularning umumiy tahlili, xususan, misol tariqasida ingliz tilidagi ayrim “good” va “bad” komponentli iboralarning tahlilini ko’rib chiqamiz.

Kalit so’zlar: frazeologik birliklar, frazeologik birliklarning tarkibiy qismi, etimologiyasi, tarix va madaniyat bilan bog’liqligi.

doi: <https://doi.org/10.2024/b9nmk71>

So’nggi yillar ichida frazeologiya tilshunoslikning izchil tadqiq qilinayotgan muhim sohalardan biriga aylandi. Zero, iboralar tilning rangdor, jozibali hamda obrazli bo’lishiga beqiyos hissa qo’shadi. Xo’sh, o’zi ibora yoki frazeologik birlik nima? The Oxford English Dictionary lo’g’atiga ko’ra, ibora – bir necha so’zlarning o’zaro birikib, birgalikda yaxlit ma’no ifoda qilishidir. Ya’ni so’zlar alohida tarzda tarjima qilinmaydi yoki tushunilmaydi. Masalan, ingliz tilidagi mashhur “it’s raining cats and dogs” iborasi mushuk va kuchukli yomg’ir yog’moqda tarjimasini beradi, lekin bu ibora aslo osmondan mushuklar va kucuklar tushayotganini anglatmaydi. Ushbu so’zlar yig’indisi yaxlit ibora hisoblanadi hamda kuchli yomg’irni ifodalash uchun ishlatiladi[3].

Frazeologik birliklarning tarkibiy qismi madaniy me’yorlar, tarix silsilalari, geografik joylashuvdan kelib chiqadi hamda rivojlanadi. Masalan, o’zbek xalqi qattiq, chuqur uyquga ketishni “toshdek qotib uxlash” iborasi yordamida ifodalasa, ingliz xalqi “sleep like a log” – to’nkadek uxlash iborasidan foydalanadi. Bu o’rinda aynan “log” – “to’nka” so’zidan foydalanilishi mamlakatning geografik joylashuvi, uning daraxtlarga boy tabiatidan kelib chiqib, ingliz kishisining “qattiq, qimirlamasdan” uxlashni obrazli ifodalashda e’tibori aynan daraxtlar hamda qimirlatish qiyin bo’lgan to’nkalariga qaratilganligini ifodalaydi. Fransuzlar esa “sleep like a marmot” – “sug’urdek uxlash”, Bete tilida esa, “pitondek uxlash” iboralaridan foydalanishadi. Ba’zi tarixiy voqealar asosida paydo bo’lgan iboralar ham mavjud bo’lib, “it’s all downhill from here” iborasi Amerikalik mustamlakachilar og’ir talofatlarga uchragach, chekinishga majbur bo’lgan Bunker Hilldagi jangdan keyin paydo bo’lgan [2].

Iboralarning tilshunoslikning alohida yo’nalishi sifatida paydo bo’lib, uning shakllanishiga to’xtaladigan bo’lsak, Charlz Ballining so’z birikmalari haqidagi tushunchasi 1930—1940-yillarda rus leksikologiyasi va leksikografiyasiga kirib kelgan va keyinchalik sobiq Sovet Ittifoqi va boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlariga tarqay boshlagan, deyishimiz mumkin. 1960-yillarning oxiridan boshlab u nemis tilshunosligida o’zini namoyon qildi, keyinchalik esa sekin-astalik bilan ingliz tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Ingliz tilidagi frazeologiyalarning eng qadimgi moslashuvlari Vaynrayx (1969) tomonidan transformatsion grammatika yondashuvi doirasida Arnold (1973), va Lipka (1992 [1974]) tomonidan amalga oshirilgan. Buyuk Britaniyada va boshqa G’arbiy Evropa mamlakatlarida so’nggi yigirma yil ichida frazeologiya barqaror rivojlandi. Yevropa frazeologiya jamiyati (EUROPHRAS) va Yevropa leksikografiya assotsiatsiyasining (EURALEX) muntazam

¹ *Ergasheva Dilafroz Abdusalomovna, Samarqand davlat chet tillar instituti o’qituvchisi*

ravishda o'tkazilayotgan anjumanlari va nashrlari Yevropada frazeologiyaga bo'lgan qiziqishning yuqori ekanligidan dalolat beradi. Har ikkala tashkilot, EUROPHRAS va EURALEX, frazeologiya va leksikografiya sohalarida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga va kengaytirishga katta hissa qo'shadi. Ular tadqiqotchilar o'rtasida hamkorlikni, fikr almashishni va bilimlarni tarqatishni kuchaytiradi, bu esa tilshunoslik va frazeologiya sohasida yangi nazariyalar va amaliyotlarning paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

Frazeologik birliklar ayni bir xalqning tarixi va madaniyatini o'zida aks ettirib, uning hayot tarzidan kelib chiqqan holda yaxlit tarzda ma'no anglatadi. Masalan, munosabati, ijtimoiy-madaniy muhitni o'zida aks ettiradi.

To'g'ridan-to'g'ri (so'zma-so'z) ma'no: To'nni chappa tomonini kiyish

Ko'chma ma'no: Jahli chiqish, urushish, janjallashishga tayyorlanish, gaplashishni, muzokara qilishni xohlamaslik.

Iboraning tarixi: To'n tarixda o'zbek xalqining asosiy liboslaridan biri bo'lgan va o'z o'rnida aholining nochor qatlami uchun yangi to'n sotib olish oson ish bo'lmagan va shu sababli biron kelishmovchilik tufayli yoqalashuv yoki mushtlashuv sodir bo'ladigan bo'lsa, kishilar to'nini teskari kiygan va shu yo'l bilan to'nining o'ng tomonini yirtilishi, zarar yetishini oldini olishga harakat qilishgan, mobodo zarar yetadigan bo'lsa to'nning ichki, astar tomoniga zarar yetgan va keyinchalik kundalik hayotda o'ng tomonini chiroyli qilib kiyib yuraverishgan.

Sinonimlar: to'nini chappa kiydi, avzoi buzuldi

Biz har bir tildagi frazeologik birliklarni o'rganar ekanmiz, ularni komponentlariga ko'ra klassifikatsiya qilishimiz mumkin. Modomiki, insoniyat, jamiyatlar, butun yer sharidagi hayot tarzi avval boshdanoq yaxshilik va yomonlik qarama-qarshiligida kechar ekan, mazkur "yaxshi" va "yomon" leksemali frazeologik birliklarning har qanday, xususan ingliz tilida katta bir bo'g'inni tashkil qilishi tabiiy hol. Demak, good va bad leksemali iboralarni lo'g'aviy hamda etimologik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, har bitta frazeologik birlikning paydo bo'lishi hamda tilda saqlanib qolishida usha millatning madaniyati nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishini payqamasdan ilojimiz yo'q. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek tilidagi yaxshi, yomon va ingliz tilidagi good, bad so'zlari sifat so'z turkumiga kirganligi sababli, ushbu komponentli frazeologik birliklar qatoriga ularning qiyosiy va orttirma darajadagi shakllari ishtirok etgan iboralar ham mazkur leksemali iboralarga kiritiladi.

Quyida ushbu tasnifga kiruvchi ayrim iboralarni tahlilini ko'rib chiqamiz:

1. Good as gold.

Ma'nosi: ishonchli, tarbiyali; tarbiya ko'rgan (asosan bolalarning o'zini tutishini ta'riflashda ishlatiladi)

Etimologiyasi: noaniq, tillaning qimmat metalligi, qadri tushmasligiga nisbat berilgan bo'lishi mumkin.

Misol: "The children were good as gold while we were at the restaurant."

"Restoranga brogan vaqtimizda bolalar o'zlarini (rosa) yaxshi tutishdi."

2. Good to go:

Ma'nosi: tayyor, tayyogarlik ko'rgan

Etimologiyasi: zamonaiy ibora hisoblanadi, harbiylar ishlatadigan jargondan olingan bo'lish ehtimoli mavjud. Savdo sohasida ham ishlatiladi.

Misol: "I've got my presentation ready, I'm good to go!"

"Mening taqdimotim tayyor, men tayyorman!"

3. Good enough for me

Ma'nosi: qoniqarli, ma'qul, ko'ngil to'ladigan

Etimologiyasi: pragmatik munosabatni aks ettiruvchi birlik

Misol: "The food was good enough for me, even though it wasn't fancy."

"Men uchun taom ma'qul edi, garchi u juda ajoyib bo'lmasa ham."

4. Good time of day

Ma'nosi: xushmuomala salomlashuvni ifodalaydi
Etimologiyasi: arxaik ibora, kunning har qanday qismida salomlashuv ma'nosida ishlatilishga qulay

Misol: "Good time of day to you, sir."

"Kuningiz xayrli bo'lsin, janob."

5. Good riddance

Ma'nosi: nimadandir qutulib olgamligidan xursandchilikni ifodalaydi

Etimologiyasi: noma'lum, "to get rid of smth bad" iborasidan kelib chiqqanlik ehtimoli yuqori

Misol: "Good riddance to that old car! I'm glad it's gone."

"O'sha eski mashinadan xalos bo'lganimga xursandman! Yaxshi bo'ldi!"

6. Good sport

Ma'nosi: mag'lubiyatni mardlarcha tan olish

Etimologiyasi: sportdagi mardlik kosepsiyasidan olingan bo'lishi mumkin

Misol: "Despite losing the game, she was a good sport and congratulated the winner."

"O'yinni yutqazganiga qaramay, u yaxshi sportchi bo'lib, g'olibni tabrikladi."

7. Good turn

Ma'nosi: mehribonlik qilishni ifodalaydi

Etimologiyasi: noma'lim, kimgadir qiyin vaziyatda yordam qo'lini cho'zish, yordam bilan yuzlanish ma'nosida "turn" fe'li ishlatilgan bolishi mumkin.

Misol: "He did me a good turn by lending me his car."

"U menga mashinasini qarzga berib yaxshilik qildi

Bad leksemali frazeologik birliklar:

1. Bad blood

Ma'nosi: insonlar o'rtasidagi dushmanlik darajasidagi yomon yomon munosabatlarni ifodalaydi

Etimologiyasi: noma'lim, ehtimol, qon zaharlanishiga olib keladigan tom ma'noda jarohatni nazarda tutish mumkin.

Misol: "There's bad blood between those two families."

"Bu ikki oila o'rtasida azaldan kelishmovchilik bor."

2. Bad hair day

Ma'nosi: inson o'zini omadsiz yoki beo'xshov his qilganda aytiladigan ibora

Etimologiyasi: noma'lim, zamonaviy ibora, sochning tartibsiz, chiroyli turmaklanmaganda bo'ladigan hissiyotlar sababli kelish chiqqan bo'lishi ehtimoli mavjud.

Misol: "I'm having a bad hair day. Nothing seems to be going right."

"Bugun kunim juda omadsiz o'tyapti, bironta ishim o'xshamayapti."

3. Bad news

Ma'nosi: yomon xabar, yangilik

Etimologiyasi: yomon, xushxabar bo'lmagan yangilikning yoqimsizligini ifodalaydigan odatiy ibora

Misol: "I have bad news about the job application."

"Ishga joylashish bo'yicha yomon xabar bor."

4. Bad rap

Ma'nosi: yomon jihatdan tanilish

Etimologiyasi: zamonaviy ibora, musiqaning rep janri va uning ba'zida juda shovqinli, musiqaning yomon turi sifatida qabul qilinishi natijasida paydo bo'lgan.

Misol: "The school has a bad rap in the community."

Maktab shu atrofda yomon nom taratgan.

5. Bad taste

Ma'nosi: nojo'ya, noma'qul

Etimologiyasi: noaniq,

Misol: "Her comment was in bad taste and offended many people."

Uning gaplari nojo'ya edi va ko'chlikni xafa qildi.

6. Bad to the bone

Ma'nosi: yomonlik suyak-suyagigacha singib ketgan.

Etimologiyasi: noaniq, shunchaki "yomon" so'zi yomonlikni ifodalaydigan asosiy so'z bo'lganligi uchun ham shu tarzda shakllangan bo'lishi mumkin.

Misol: "He's a bad to the bone criminal."

U juda yomon jinoyatchi

7. Bad habit

Ma'nosi: o'zgartirish qiyin bo'lgan yomon odat

Etimologiyasi: odatiy ibora, noto'g'ri yoki boshqalarga zarar yetkazadigan odatlarni ifodalaydi

Misol: "I need to break my bad habit of biting my nails."

"Men tirnoqlarimni kemirish odatimni tark etishim kerak."

8. A bad egg

Ma'nosi: ishonib bo'lmaydigan, yolg'onchi inson

Etimologiyasi: aynigan tuxumga nisbatan olingan

Misol: "He's a bad egg. You can't trust anything he says."

"U yomon odam. Uning so'zlariga ishonish mumkin emas."

"Good" va "bad" so'zlari birgalikda ishtirok iboralar.

1. The good, the bad and the ugly

Ma'nosi: ham ijobiy, ham salbiy bo'lganbarcha xususiyatlar jamlanmasini ifodalaydi

Etimologiyasi: Shu nomli filmdan olingan.

Misol: "She gave me a report on the project, outlining the good, the bad, and the ugly."

"U menga loyiha haqida hisobot berdi hamda uning barcha yaxshi va yomon tomonlarini ko'rsatdi."

2. Good for you, bad for me

Ma'nosi: bir tomon uchun foydali, ikkinchi tomon uchun esa zararli holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Etimologiyasi: qiziqish va manfaatlarning mos tushmasligini ifodalash uchun doimiy so'zlar tanlovi

Misol: "Getting that promotion was good for you, but it was bad for me because now I have to do your old job!"

"O'sha lavozimga ko'tarilishing sen uchun yaxshi bo'ldi, lekin bu men uchun yomon bo'ldi, chunki endi men sening eski ishingni bajarishga majburman!"

Misollarda ko'rib chiqqanimizdek, barcha iboralarning ham kelib chiqishi aniq emas yoki ularning paydo bo'lish tarixi bo'yicha bir necha nazariyalar mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, iboralar bir tildagi bir necha so'zlarning yaxlit va ko'chma ma'no anglatadigan yig'indisi bo'lib, ularning ma'nosi to'liq so'zlar tomonidan anglatilgan ma'nolardan farq qiladi. Ular o'zgaruvchan, turli kontekstlarda turlicha ma'nolarni ifodalashda yordam beradi. Iboralar tilda tushunish va nutqni boyitishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular murakkab g'oyalarni soddalashtirib, to'g'ridan-to'g'ri ifodalashdan ko'ra ularga ko'proq emotsional va rang-baranglik baxsh etish imkoniyatiga ega.

Olib borilayotgan tadqiqotlar iboralar o'quv jarayonida til o'rganish va nutqni rivojlantirishda qanchalik ahamiyatli ekanligini namoyish etmoqda. Jumladan, kognitiv lingvistika iboralar qanday qilib madaniy xususiyatlarni o'z ichiga olishini va ularni qay tarzda o'rganish va qo'llash mumkinligini yoritib kelmoqda. Lingvistlar, shuningdek, iboralarni tilning o'ziga xos jihatlarni - semantik, sintaktik va pragmatik elementlarini tahlil qilishda ishlatmoqdalar. Bunday tadqiqotlar iboralarning til jarayonlarini, xususan, muomala va muloqot jarayonlarini ham chuqurroq tushunishga ko'makchi bo'ladi.

O'z navbatida, bunday bilimlar til o'rganish metodlarida iboralarni ta'lim berishning samarali yondashuvlariga yo'l ochadi, va shu bilan birga, til haqida umumiy tushunchani kengaytiradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Amosova N.N. (1983). *Fundamentals of English Phraseology*. Leningrad: LSU. P.206.

[2]. Abaev V.I. (1988). *Concept of ideosemantics. Language and thinking*. Vol. 11. Moscow-Leningrad. P.32.

[3]. Ivanova I.A. (2000). *Etymology of English words*. I.A. Ivanova. M. P.4.

[4]. Koonin A.V. (1996). *Course of phraseology of modern English: textbook for institutes and faculties of foreign languages*. 2nd ed. revised. Moscow. Publishing Center "Phoenix". P. 54-63.

[5]. *Longman dictionary of English Idioms*, Longman. 1980. P.5-35.

[6]. Sh. Rahmatullayev. "O'zbek tilining izohli lo'g'ati" P.-9